



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-noyabr

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-noyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 3960,5 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 133,7 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2182,0 ming.so'mni tashkiletdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.


2018 yil yanvar-noyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3960,5 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,1 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni transport xizmatlari (28,2 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)




2018 yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Ma'lumot uchun: 2017 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 3282,6 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2018 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (116,4 mlrd.so'mga), savdo xizmatlari (115,2 mlrd.so'mga), moliyaviy xizmatlar (58,7 mlrd.so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (23,9 mlrd.so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi

Eng kam ulush

Shaxsiy xizmatlar
3,1 %



Boshqa xizmatlar
2,5 %



Ijara xizmatlari
2,4 %



Yashash va ovqatlanish xizmatlari
2,4 %



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
1,8 %



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar
1,0 %



Eng katta ulush

Transport xizmatlari
28,2 %



Savdo xizmatlari
27,5 %



Moliyaviy xizmatlar
13,1 %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
6,9 %



Ta'lim sohasidagi xizmatlar
4,0 %




Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash
3,7 %



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar
3,4 %




Ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Transport xizmatlari - 1115,0 mlrd.so'm, savdo xizmatlari– 1090,0 mlrd.so'm, boshqa xizmatlar - 961,0 mlrd.so'm, moliyaviy xizmatlar - 520,7 mlrd.so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 273,8 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshganligi qayd etildi.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (133,7 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (115,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,7 %), ijara xizmatlar (108,2 %), kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	3960,5	108,1
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	273,8	111,7
moliyaviy xizmatlar	520,7	133,7
transport xizmatlari	1115,0	103,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1071,0	103,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	95,3	103,4
savdo xizmatlari	1090,0	103,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	133,9	102,9
ta'lim sohasidagi xizmatlar	156,7	115,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	71,4	107,4
ijara xizmatlari	93,4	108,2
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	145,6	104,7
shaxsiy xizmatlar	124,7	102,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	39,7	104,2
boshqa xizmatlar	100,3	107,6